XALQ DEPUTATLARI URGANCH SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 11-avgust VII-13-92-12-180-K/25 Urganch shahar

Urganch shahri Mash’al mahallasida joylashgan “Boshqa irqlilar” qabristonini qayta nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonunining 10-moddasiga muvofiq “Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-son qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2025-yil 7-martdagi 01-19-09/2329-son murojaatnomasi va unda qayd etilgan Urganch shahri Mash’al mahallasida joylashgan “Boshqa irqlilar” qabristonining nomini Birdamlik nomiga o‘zgartirish to‘g‘risidagi takliflari Respublika toponomika komissiyasida ko‘rib chiqilib, bu bo‘yicha ekspertiza xulosasi kelganligini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6- va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari shahar Kengashi

Qaror qiladi:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2025-yil 7-martdagi 01-19-09/2329-son murojaatnomasi va shahar hokimining qabriston nomlarini o‘zgartirish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. Urganch shahri Mash’al mahallasida joylashgan “Boshqa irqlilar” qabristoni nomini Birdamlik nomiga o‘zgartish yuzasidan taklif ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Shahar statistika bo‘limi (O‘.Yo‘ldashev), shahar obodonlashtirish boshqarmasi (U.O‘ktamov) shahar hokimligi bilan birgalikda nomlari o‘zgartirilgan qabristonlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Mazkur qaror “Yangi Urganch” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining “Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiya” (S.Masharipov) zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi  RADJAPOV BUNYOD MADIRIMOVICH

Xalq deputatlari Urganch shahar
Kengashining
2025-yil 11-avgustdagi
VII-13-92-12-180-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Urganch shahri Mash’al mahallasidagi nomsiz deb topilgan qabristonga Birdamlik nomini berish to‘g‘risida ma’lumot

T/R	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1	Qabriston	Mash’al mahallasi	Boshqa irqlilar	Birdamlik	Birdamlik - “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilishi” qoidalari asosida me’yorlashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.